

# QABUL 2021/2022

## TOSHKENT SHAHRIDAGI TURIN POLITEXNIKA UNIVERSITETINING 2021/2022 O'QUV YILI BAKALAVRIAT BOSQICHIGA QABUL QOIDALARI VA HUJJAT TOPSHIRISH MUDDATI

### 1.1. KIRISH

Ushbu reglament Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetining (TTPU) Bakalavriat bosqichi uchun qabul qoida va talablarini o'zida aks ettiradi.

### 1.2. Yo'nalishlar va o'rinlar soni

2020/2021 o'quv yilida Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti Bakalavriat bosqichining har bir yo'nalishi uchun qabul kvotasi quyidagicha taqsimlanadi:

Yo'nalish nomi	O'rinlar soni
Mashinasozlik texnologiyasi	250
Avtomobilsozlik texnologiyasi	250
Axborot texnologiyalari va sanoatda avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari (Kompyuter muhandisligi)	350
Sanoatda xo'jalik qurilishi va arxitektura	50

### 1.3. Grant berish va ularning soni

2021/2022 o'quv yilida "UzAvto" kompaniyasi va uning korxonalari, Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti tomonidan hamda Davlat grantlari ajratilishi rejalashtirilgan ([Prezident qaror-loyihasiga binoan](#)). Grantli o'rinlarni tanlash – kirish imtihonlari natijalariga ko'ra amalga oshiriladi va eng yuqori ball to'plagan abituriyentlarga beriladi. 2021/2022 o'quv yili uchun ajratiladigan grantlar soni:

<b>Grantlar</b>	<b>Joylar soni</b>
Davlat granti	15
Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti granti	10
“UzAvto” granti	25

#### **1.4. Qabul tartibi va hujjat topshirish muddati**

##### **1.4.1. Kirish imtihoni**

TTPU tomonidan taqdim etilgan barcha bakalavr dasturlari “mahalliy rejalashtirilgan qabul qilish” tizimiga asoslangan. Talabalar uchun o‘rinlar soni cheklangan bo‘lib, belgilangan kvota doirasida o‘rinlar soni to‘lgunga qadar **kirish imtihonida** eng yuqori ball to‘plagan abituriyentlarga o‘qiy oladilar. Kirish imtihonida to‘plagan ball faqat 2021-2022 o‘quv yili uchun amal qiladi.

Qabul imtihonida yuqori ball to‘plagan abituriyentlarga birinchi bosqichni o‘tkazib yuborish va 1.5-bo‘limda muhokama qilingan til talablarini hisobga olgan holda, ikkinchi bosqichga kirish imkoniyati berilishi mumkin. Ta’kidlash lozimki, abituriyentlar 12 yillik maktab yoki 11 yillik ta’lim + barcha tayyorgarlik imtihonlarini topshirganlik haqidagi yoki 11 yillik ta’lim + tan olingan universitetda bir yil (barcha rejalashtirilgan imtihonlarni topshirgan holda) davomida ta’lim olinganligi to‘g‘risidagi diplomga ega bo‘lishlari kerak.

Ariza beruvchi (abituriyent) ushbu imkoniyatdan voz kechishga va birinchi bosqichdan o‘qishni davom ettirishga haqlidir.

Ikkinchi bosqichga qabul qilish to‘g‘risida yakuniy qaror Toshkentdagi Turin politexnika universiteti rektori, o‘quv va ilmiy ishlar bo‘yicha prorektor va qabul komissiyasi koordinatorining roziligidan so‘ng qabul qilinadi.

##### **1.4.2. Imtixon sanasi**

2021/2022 o'quv yili uchun **UCH MARTA KIRISH IMTIHONI** bo'lib o'tadi:

- Birinchi imtihon **21 MAY** kuni mahalliy vaqt bilan soat 10:00 da bo'lib o'tadi (ro'yxatdan o'tishning oxirgi muddati – 14 may, nomzodlar maksimal soni – 450). **Agar ro'yxatdan o'tgan abituriyentlar soni birinchi imtihon uchun kvotadan oshib ketgan bo'lsa, ular avtomatik ravishda iyul sessiyasiga yoziladi. Kelmagan abituriyentlar iyul sessiyasiga kiritilmaydi;**
- Ikkinchi imtihon (nomzodlar soni ko'proq) **IYUL** oyining boshida bo'lib o'tadi (aniq sanalar va tartibi keyinroq e'lon qilinadi);
- Uchinchi imtihon sentyabr oyida bo'lib o'tadi (aniq sanalar va tartibi keyinroq e'lon qilinadi) va imtihondan o'tgan abituriyentlar birinchi bosqichni o'tkazib yuborolmaydilar.

***Kirish imtihonlari Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida bo'lib o'tadi. Manzil: Toshkent shahri, Kichik Xalka Yuli, 17, 100095, (Mo'ljal: Talabalar shaharchasi, sobiq "Nukus" kinoteatri, "Asia.uz" supermarketi).***

#### **1.4.3. 1-BOSQICH On-layn ro'yxatdan o'tish**

[Ro'yxatdan o'tish](#)

**ILTIMOS, ON-LAYN ANKETANI TO'LDIRISHDA VIDEONI TOMOSHA QILING.**

**May oyida bo'lib o'tadigan birinchi imtihonga ro'yxatdan o'tish ochiq.**

1-bosqichdan o'tish majburiy bo'lib, abituriyentlar ushbu bosqichni amalga oshirmay 2-bosqichga o'ta olmaydilar!

2-bosqich – Kirish jarayonining shaffofligini ta'minlash uchun, karantin paytida, 1-bosqichni tugatgandan so'ng, ariza beruvchi (abituriyent) pasportining elektron nusxasini quyidagi manzilga yuborishi kerak: [admission@new.polito.uz](mailto:admission@new.polito.uz).

Qabul jarayonining shaffofligini ta'minlash maqsadida qabul komissiyasi abituriyentning barmoq izlari va fotosuratlarini oladi. Abituriyentda pasport, o'rta va o'rta maxsus ta'lim haqidagi hujjat – attestat, diplom, diplom olinmagan bo'lsa – o'qishni tugatganligi haqida ma'lumotnoma (asli nusxasi) bo'lishi kerak.

Bundan tashqari, texnik ma'lumotlar bazasini yuritish bilan bog'liq xarajatlar tufayli har bir murojaat etuvchi Markaziy bank kursi bo'yicha 5 evro (65000 so'm) miqdorida kirish to'lovini to'lashi lozim. Kirish to'lovini amalga oshirmagan abituriyentlar imtihonlarga kiritilmaydi.

Buning uchun abituriyent Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetiga kelishlari shart. Abituriyentning barmoq izi olinib u rasmga tushirilgandan so'ng barcha hujjatlar qaytariladi. (Manzil: *Kichik Halqa Yo'li ko'chasi 17, Toshkent, 100095; Mo'ljal: Talabalar shaharchasi, eski Nukus Kinoteatri, "Asia.uz" savdo markazi*)

On-layn shaklni o'z vaqtida to'ldirmagan, barmoq izlari va rasmga tushgani kelmagan abituriyentlar kirish imtihonlariga qo'yilmaydi!

#### **1.4.4. Onlayn test**

Kirish imtihonlari test shaklida bo'lib, qiyinlik darajasi O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim o'quv dasturi darajasida bo'ladi.

Onlayn (on-line) test quyidagilardan iborat:

**Matematika:** 18 ta savol (40 daqiqa).

**O'qib tushunish:** 6 ta savol (12 daqiqa).

**Mantiq:** 6 ta savol (12 daqiqa).

**Fizika:** 12 ta savol (26 daqiqa)

On-line test **42 SAVOLDAN** iborat bo'lib, **90 DAQIQA** davom etadi. Barcha savollar **5** ta javoblar variantidan iborat bo'lib, ulardan **bittasi to'g'ri**.

Tanlangan javoblar quyidagicha baholanadi:

- **1 ball**– agar to'g'ri javob tanlansa (1 ball qo'shiladi)
- **-0.25**– noto'g'ri javob tanlansa (to'plangan balldan 0.25 ball ayirib tashlanadi)
- **0 ball**– javob tanlanmagan bo'lsa (ball yo'qotmaysiz)

**Barcha fanlar bo'yicha test ingliz tilida o'tkaziladi!**

#### **1.4.5. Test natijalari**

Abiturientlar to'plagan ballarini onlayn testni yakunida bilib oladilar. Abiturientlarning to'liq ro'yxati to'plagan ballarning (imtihon natijalarining) foiz ko'rsatkichidagi ketma-ketligi kirish testidan keyin bir yoki ikki hafta ichida e'lon qilinadi.

Imtihon natijalari e'lon qilingandan so'ng o'qishga tavsiya qilingan abiturientlar quyidagi hujjatlarni Qabul komissiyasiga topshirishlari shart:

- Ariza: ariza belgilangan tartibda to'ldirilishi va Qabul Komissiyasi mas'ul xodimi huzurida imzolanishi kerak;
- Passport (asli va nusxa) – hujjatning asli qaytarib beriladi;
- 3x4 o'lchamdagi 4 ta rangli fotosurat;
- 1 ta papka (skoro shivatel), o'rta o'lchamdagi konvert;
- O'rta va o'rta maxsus ta'lim haqidagi hujjat – attestat, diplom va ilovasi;
- IELTS sertifikatini kamida 5.5 ball (boshqa turdagi ingliz tili sertifikatini topshirish bo'yicha ma'lumotlar bilan 1.5 bo'limda tanishib chiqing).

Hujjatlar Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti Qabul Komissiyasi tomonidan Kichik Halqa Yo'li ko'chasi 17,

Toshkent 100095 manzili bo'yicha qabul qilinadi. (Mo'ljal: Talabalar shaharchasi, eski Nukus Kinoteatri, "Asia.uz" savdo markazi).

#### **1.4.6. Kirish imtihonidan ozod etilish shartlari**

Bu bo'lim quyida ko'rsatilgan sertifikatlarga ega bo'lgan fuqarolariga tegishli. Agar abituriyentlar quyida ko'rsatilgan sertifikatlardan biriga ega bo'lsa va uning natijasi jadvalda ko'rsatilgan natija bilan bir xil yoki undan ortiq bo'lsa, ular 1.4.1 bo'limiga asosan birinchi bosqichni o'qimay 2-bosqichdan o'qishni boshlashlari mumkin. Bu haqidagi yakuniy qarorni Qabul komissiyasi va uning koordinatori, o'quv va ilmiy ishlar bo'yicha prorektor beradi. Kirish imtihonlarini topshirish majburiy bo'lgan davlat fuqarolari, imtihonni topshirganligini tasdiqlovchi maxsus sertifikat taqdim etishlari shart.

**Certificates considered equivalent to the admission test** (the following number refers to the grading equal to or higher than the threshold: 60/100)

**GRE** (General Test) with a minimum score of 153 in the "Verbal" section and 144 in "Quantitative" section and any score in the "Analytical Writing" section

**GMAT** with a minimum score of 500 in the two sections "Verbal" and "Quantitative", with any score in the "Analytical Writing" section.

**SAT** *SAT Reasoning test* (section "Evidence-Based Reading and Writing" and section "Math" with a minimum score of 500 points in each section) and *SAT Subject Test* (section "Physics Level 1 or 2" and section "Mathematics Level 1 or 2" with a minimum score of 500 points in each section). The two sections "Evidence-Based Reading and Writing" and "Math" of the SAT Test can be replaced by the ACT Test with a minimum score of 20.

## **1.5. Ingliz tili sertifikat**

TTPU ning birinchi bosqichiga qabul qilinish uchun abituriyentlar **4.5 balldan** kam bo'lmagan IELTS sertifikat (akademik) ga ega bo'lishlari lozim.

TTPU ning ikkinchi bosqichida taxsil olish uchun **5.5** yoki undan yuqori bo'lgan IELTS sertifikat (akademik) talab qilinadi.

TTPU da IELTS sertifikat (akademik) o'rniga ekvivalent sifatida tan olinadigan sertifikatlar ro'yxati: <https://didattica.polito.it/cla/en/certificates>.

## **1.6. TTPU da ta'lim olish uchun to'lov miqdori.**

Bir akademik yil Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida ta'lim olish uchun to'lov miqdori **28 500 000** (yigirma sakkiz million besh yuz ming) so'mni tashkil etadi.

### **QO'SHIMCHA MA'LUMOT UCHUN**

Qabul komissiyasining ish jarayoni uchun mas'ul shaxslar:

**Qabul komissiyasining raisi – Inoyatkhodjaev J.Sh.**

**Qabul komissiyasining mas'ul kotibi – Abdullayev F.B.**

*Turin politexnika universiteti ma'muriyati ushbu ro'yxatdan tashqari shaxslarning faoliyati uchun javobgar emas.*

On-layn anketani to'ldirish, ariza yoki boshqa turdagi ma'lumotlar yuzasidan qo'shimcha ma'lumotlar uchun bevosita Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetining quyidagi keltirilgan manzilga murojaat qilishingiz mumkin:

Elektron manzil: [admission@new.polito.uz](mailto:admission@new.polito.uz)

Telefon raqamlari: +99871 246-80-51, +99871 246-80-52

**Qabul komissiyasining ish vaqti: Dushanba – Juma soat 9:00 dan**

**17:00 gacha.**